



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdanova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQARISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARA KATINING MATEMATIK MODEL I	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ	115
Бабаджанов Шухрат Атхамович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	



“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”

Abdumalikov Shoxjahan Jaloliddin o'g'li

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, i.f.f.d., PhD.

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiyot bozorining uzluksiz rivojlanishini ta'minlash uchun mavjud mexanizmlarni takomillashtirishga oid yondashuvlar tahlil qilinadi. Zamonaviy sog'liqni saqlash tizimlarida barqarorlik va samaradorlikni oshirishda mazkur mexanizmlarning o'ri, shuningdek, ularning iqtisodiy va tashkiliy jihatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada tibbiy xizmatlar bozorining o'sish tendensiyalari, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etishning strategik usullari o'rganiladi. Tadqiqot natijalari tibbiyot bozorida innovatsion yondashuvlarni joriy etish va samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish imkoniyatlarini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: tibbiyot bozori, sog'liqni saqlash iqtisodiyoti, bozor mexanizmlari, raqobatbardoshlik, tibbiy xizmatlar sifati, xususiy tibbiyot, davlat-xususiy sheriklik, sog'liqni saqlashni boshqarish, investitsion jozibadorlik, tibbiy innovatsiyalar.

Abstract. This article analyzes approaches to improving existing mechanisms aimed at ensuring the continuous development of the medical market. The role of these mechanisms in increasing the stability and efficiency of modern healthcare systems, as well as their economic and organizational aspects, is considered. The article examines growth trends in the medical services market, existing problems, and strategic methods for addressing them. The results of the study substantiate the possibilities of introducing innovative approaches in the medical market and developing effective management mechanisms.

Key words: medical market, healthcare economics, market mechanisms, competitiveness, quality of medical services, private medicine, public-private partnership, healthcare management, investment attractiveness, medical innovations.

Аннотация. В статье анализируются подходы к совершенствованию существующих механизмов, направленных на обеспечение непрерывного развития медицинского рынка. Рассматривается роль данных механизмов в повышении стабильности и эффективности современных систем здравоохранения, а также их экономические и организационные аспекты. Изучаются тенденции роста рынка медицинских услуг, существующие проблемы и стратегические методы их устранения. Результаты исследования обосновывают возможности внедрения инновационных подходов и разработки эффективных механизмов управления на медицинском рынке.

Ключевые слова: медицинский рынок, экономика здравоохранения, рыночные механизмы, конкурентоспособность, качество медицинских услуг, частная медицина, государственно-частное партнёрство, управление здравоохранением, инвестиционная привлекательность, медицинские инновации.

KIRISH

Bugungi kunda sog'liqni saqlash sohasi jahon iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega soha, balki jadal rivojlanib borayotgan yirik bozor segmenti sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida tibbiyot bozorining uzluksiz rivojlanishi, bir tomondan, aholi salomatligini muhofaza qilishni ta'minlasi, ikkinchi tomondan, mamlakatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda sog'liqni saqlash tizimini izchil isloh qilish, xususiyl sektorni qo'llab-quvvatlash hamda tibbiy xizmatlar sifati oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab qo'yilgan.



Shu bilan birga, tibbiyot bozorining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash jarayonida ayrim tizimli masalalar mavjudligi kuzatiladi. Jumladan, sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, tibbiy xizmatlar narxini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish, raqobat muhitini rivojlantirish hamda investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini kengaytirish zarurati mavjud. Mazkur yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish tibbiyot bozorini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish va zamonaviy yondashuvlarni joriy etishni taqozo etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi tibbiyot bozorini rivojlantirishning iqtisodiy va huquqiy asoslarini tahlil qilish, sohada davlat-xususiy sheriklik tamoyillarini kengaytirish hamda bozor mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, maqolada xalqaro tajribaga tayangan holda tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va sohaga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilishning samarali yo'llari tadqiq etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tibbiyot bozorini rivojlantirish hamda sog'liqni saqlash iqtisodiyotini optimallashtirish masalalari xalqaro miqyosda ko'plab xorijiy olimlar tomonidan keng qamrovda tadqiq etilgan. Jumladan, M. Porter va E. Teisberg o'zlarining "qiymatga asoslangan sog'liqni saqlash" (Value-Based Healthcare) konsepsiyasida tibbiyot bozorida raqobat xizmatlar hajmi bo'yicha emas, balki erishilgan natijalarning sifati asosida shakllanishi lozimligini asoslab beradilar. Shuningdek, A. Enthoven va R. Feldman sog'liqni saqlash tizimida bozor mexanizmlarini joriy etish, xususan, "boshqariladigan raqobat" (managed competition) modeli orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilganlar. G. Anderson va J. Appleby esa tibbiy xizmatlar bozorida narx shakllanishi hamda davlatning tartibga soluvchi roli o'rtasidagi muvozanatni o'rganib, xususiy sektor ulushini kengaytirishning iqtisodiy samaralarini yoritib berganlar.

Milliy miqyosda mazkur sohaning iqtisodiy jihatlarini B. X. Xodjayev, Sh. T. Ergashev va D. A. Asadov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Ushbu tadqiqotlarda O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning institutsional asoslari, tibbiy sug'urtani joriy etishning moliyaviy mexanizmlari hamda sohada davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, milliy olimlar tomonidan bozor sharoitida tibbiy xizmatlar sifatini boshqarish va tibbiyot muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirishga qaratilgan taklif etilgan modellar mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimini transformatsiya qilish jarayonlarini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Ish jarayonida tibbiyot bozoridagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil va sintez qilinib, O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlari asosida statistik jihatdan o'rganildi. Shuningdek, xususiy sektor rivojlanish tendensiyalarini umumlashtirishda induksiya va deduksiya metodlari qo'llanildi. Tadqiqotning empirik bazasini Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) va Jahon banki hisobotlari tashkil etib, bozor mexanizmlarining rivojlanish istiqbollari SWOT-tahlil usuli yordamida baholandi.

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, ekspert baholash va grafik tasvirlash usullaridan ham foydalanildi. Olingan natijalar dinamik qatorlar orqali solishtirilib, ularning o'zaro bog'liqligi korrelyatsion tahlil yordamida aniqlashtirildi. Tahlil natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida ma'lumotlar turli manbalar kesimida solishtirildi hamda umumlashtirildi. Ushbu yondashuvlar tibbiyot bozorining rivojlanish tendensiyalarini chuqurroq ochib berish va asosli ilmiy xulosalar shakllantirish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tibbiyot bozorini rivojlantirishning hozirgi bosqichida eng samarali zamonaviy mexanizm sifatida "Yagona raqamli sog'liqni saqlash ekotizimi" hamda "Natijaga yo'naltirilgan sug'urta modeli" integratsiyasini joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur mexanizm doirasida tibbiyot muassasalari o'rtasida sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan raqobat muhiti shakllanishi kutiladi. O'tkazilgan tahlillar natijalariga ko'ra, raqamli platformalar orqali tibbiy xizmatlarni boshqarish operatsion xarajatlarni o'rtacha 15–20 % ga qisqartirish, bemorlarni qabul qilish jarayonining samaradorligini esa qariyb 30 % ga oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, tibbiyot bozorida yangi mexanizmlarni joriy etishdan kutilayotgan samaradorlik ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil asosida baholanib, ularning asosiy natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan (1-jadval).



1-jadval. Tibbiyot bozorini rivojlantirishning an'anaviy va takomillashtirilgan mexanizmlarining qiyosiy tahlili

Ko'rsatkichlar	An'anaviy mexanizm (mavjud holat)	Takomillashtirilgan mexanizm (taklif etilayotgan)	Kutilayotgan iqtisodiy samara
Boshqaruv usuli	Hujjatlar aylanishiga asoslangan va markazlashgan rejalashtirish	Raqamli monitoring hamda Big Data tahliliga asoslangan boshqaruv	Boshqaruv xarajatlarining taxminan 18 % ga qisqarishi
Moliyalashtirish	Byudjet mablag'laridan to'g'ridan-to'g'ri ajratmalar	"Natija uchun to'lov" va sug'urta modeliga asoslangan moliyalashtirish	Mablag'larning maqsadli sarflanish darajasining 95 % dan yuqori bo'lishi
Raqobat muhiti	Davlat sektorining ustunligi bilan tavsiflanadigan cheklangan raqobat muhiti	Davlat-xususiy sheriklik va xususiy sektor integratsiyasiga asoslangan erkin raqobat muhiti	Xizmatlar narxining o'rtacha 10–12 % ga pasayishi
Xizmat sifati	Standartlashtirilgan umumiy yondashuv	Shaxsiylashtirilgan (personalized) tibbiyot yondashuvi	Davolash samaradorligining taxminan 25 % ga oshishi

Tadqiqot natijalariga ko'ra, taklif etilayotgan "Smart Medical Market" modeli nafaqat davlat xarajatlarini optimallashtiradi, balki xususiy investorlar uchun bozorni yanada shaffof va jozibador qiladi. Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, raqamli monitoring tizimiga o'tish tibbiyot muassasalarining moliyaviy barqarorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Muhokamalar jarayonida aniqlanishicha, yangi sug'urta modelining joriy etilishi tibbiyot xodimlarining mehnatiga haq to'lashni ular ko'rsatgan xizmatlar sifati, ya'ni bemorning sog'ayish darajasi bilan bevosita bog'lash imkonini yaratadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etish uchun, avvalo, yagona normativ-huquqiy platformani shakllantirish hamda "Elektron poliklinika" tizimini "Elektron sug'urta" tizimi bilan to'liq integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuv tibbiyot bozorida xufyona iqtisodiyot ulushini qisqartirishga, shuningdek, ko'rsatilayotgan xizmatlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tibbiyot bozorining rivojlanish tendensiyalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bozor mexanizmlarining samaradorligi bevosita xususiy sektor ulushi hamda aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan talabining qondirilish darajasi bilan belgilanadi. Quyidagi statistik tahlil O'zbekistonda so'nggi yillarda xususiy tibbiyot muassasalarining o'sish dinamikasini aks ettiradi (2-jadval).

2-jadval. Tibbiyot bozorida xususiy sektor subyektlarining o'sish ko'rsatkichlari (2020–2025-yillar kesimida)

Yil	Xususiy klinikalar soni (birlik)	Tibbiy xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi (%)	Investitsiyalar hajmi (mln dollar)	Yillik o'sish sur'ati (%)
2020-yil	5 400	12,5	180	8,2
2021-yil	6 100	14,8	215	11,5
2022-yil	7 300	18,2	290	16,4
2023-yil	8 200	22,0	340	14,8
2024-yil	9 450	26,5	410	18,2
2025-yil	10 800	31,0	485	20,5

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2020–2025-yillar davomida xususiy tibbiyot muassasalari soni deyarli ikki barobarga oshgan. Xususan, tibbiy xizmatlar umumiy hajmidagi xususiy sektor ulushining 12,5 % dan 31,0 % gacha ko'tarilishi bozorda raqobat muhitining sezilarli darajada faollashayotganidan dalolat beradi. Investitsiyalar oqimining barqaror o'sishi, ya'ni yillik o'rtacha 15–18 % atrofida bo'lishi investorlarning mazkur bozorga bo'lgan ishonchi tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.

Tibbiyot bozorini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri xizmatlar turlari bo'yicha ixtisoslashuv jarayonining kuchayib borishidir. Quyidagi rasmda bozor tarkibidagi eng jozibador yo'nalishlarning taqsimoti aks ettirilgan. Empirik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda tibbiyot bozorining eng katta ulushi diagnostika (35 %) va stomatologiya (25 %) sohalariga to'g'ri kelmoqda. Shu bilan birga, so'nggi ikki yil davomida murakkab jarrohlik amaliyotlari, jumladan, kardiologiya va ortopediya yo'nalishlarida xususiy sektor ulushining sezilarli darajada oshishi, ya'ni yiliga o'rtacha 22 % atrofida o'sishi kuzatilmoqda. Bu holat bozor mexanizmlarining takomillashuvi natijasida xususiy tibbiyot nafaqat birlamchi xizmatlar, balki yuqori texnologik yo'nalishlarda ham davlat sektori bilan samarali raqobat olib borayotganini tasdiqlaydi.



Mazkur jarayonlarning mantiqiy davomi sifatida “Raqamli tibbiyot platformasi”ni joriy etish natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy samaradorlikni quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha baholash mumkin:

1. Tranzaksiya xarajatlar: shartnoma tuzish va to‘lovlarni amalga oshirish uchun sarflanadigan vaqt taxminan 5 barobarga qisqaradi.
2. Resurslarni taqsimlash: bemorlarni muassasalarga yo‘naltirish jarayonining optimallashtirish hisobiga davlat shifoxonalardagi yuklama qariyb 20 % ga kamayadi.
3. Shaffoflik: raqamli monitoring mexanizmlarining joriy etilishi natijasida norasmiy to‘lovlar ulushi minimal darajagacha qisqaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tibbiyot bozorining rivojlanish mexanizmlarini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, sohaning barqaror o‘sishi nafaqat moliyaviy resurslar hajmi, balki boshqaruvning zamonaviy va bozor talablariga mos instrumentlari bilan ham belgilanadi. O‘zbekiston sharoitida davlat va xususiy sektorning integratsiyalashuvi, raqamli texnologiyalarning sog‘liqni saqlash iqtisodiyotiga keng joriy etilishi hamda sifatga asoslangan moliyalashtirish tizimiga o‘tish tibbiyot bozorining kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beruvchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, erkin raqobat muhitini shakllantirish orqali tibbiy xizmatlar narxlarini optimallashtirish va ularning sifatini xalqaro standartlar darajasida ta‘minlash imkoniyati mavjud.

Yakuniy xulosa sifatida ta‘kidlash joizki, tibbiyot bozorini rivojlantirishga qaratilgan takomillashtirilgan mexanizmlar aholi salomatligini muhofaza qilish bilan bir qatorda sog‘liqni saqlash tizimining investitsion jozibadorligini oshirish hamda uning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, sifatga yo‘naltirilgan moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish tibbiyot xodimlarini faqat xizmatlar hajmi emas, balki davolash natijalari sifati asosida rag‘batlantirish imkonini yaratadi, bu esa xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish tibbiyot bozorida axborot shaffofligini kuchaytiradi, shifokor va bemor o‘rtasidagi ma‘lumotlar nomutanosibligini kamaytiradi hamda fuqarolarga tibbiy muassasalar faoliyati va xizmatlar narxlarini to‘g‘risida ochiq axborot olish imkonini beradi. Shuningdek, investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar mahalliy ishlab chiqaruvchilar va xususiy tibbiyot muassasalari uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish va yuqori texnologik yo‘nalishlarni rivojlantirishda qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Umuman olganda, ushbu yondashuvlarning amaliyotga izchil tatbiq etilishi O‘zbekiston tibbiyot bozorining raqobatbardoshligini oshirishga, sohani o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi va barqaror tizim sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Porter, M. E., Teisberg, E. O. Redefining Health Care: Creating Value-Based Competition on Results. — Boston: Harvard Business School Press, 2006. — 506 p.
2. Enthoven, A. C. Theory and Practice of Managed Competition in Health Care Finance. — Amsterdam: North-Holland Publishing, 1988. — 162 p.
3. Gordeev, V. S., Pavlova, M., Groot, W. Economic Development and Health Care Reform in Central and Eastern Europe and Central Asia // International Journal of Health Planning and Management. — 2021. — Vol. 36, No. 2. — P. 312–325.
4. Xodjayev, B. X. Sog‘liqni saqlash iqtisodiyoti: darslik. — Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2019. — 340 b.
5. Asadov, D. A., Aripov, T. Y. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari // Tibbiyotda yangi kun. — Toshkent, 2022. — № 4 (42). — B. 15–22.
6. Ergashev, Sh. T. Tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: iqtisod fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2020. — 68 b.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrda PF–5590-son “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4096197>
8. World Health Organization. World Health Report 2023: Health Systems Financing, the Path to Universal Coverage. — Geneva: WHO Press, 2023. — 108 p.
9. Vaxabov, A. V., Malikov, T. S. Moliya: darslik. — Toshkent: “Sharq”, 2021. — 712 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
